

ANDIJON VILOYATI SHAROITIDA SALATBOSH O'SIMLIGINI OCHIQ MAYDONDA (TUPROQSIZ) GIDROPONIKA SHAROITDA YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Bo'stonov Zokirjon Tojiboevich

Andijon qishloq xo'jalik va agrotexnologiyalar instituti professori

Ismanova Gulcnexraxon Dilmurod qizi

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20287928>

Annotatsiya:

Было установлено, что выращивание салата гидропонным методом в водопроводных трубах на открытом грунте и его последующее введение в производство обеспечивает высокую экономическую эффективность. Чистый доход только от сорта «Айсберг» на открытом грунте составил 104 688 тысяч сумов/гектар, что соответствует рентабельности в 387%.

Abstract

It was found that growing lettuce hydroponically in open-field water pipes and then introducing it into commercial production provides high economic efficiency. Net income from the Iceberg variety alone in open fields amounted to 104,688 thousand soums per hectare, representing a profitability of 387%.

Ключевые слова: Салат айсберг, гидропоника, открытые условия, продуктивность, экономическая эффективность.

Keywords: Iceberg lettuce, hydroponics, open conditions, productivity, cost-effectiveness.

Olib borilgan tadqiqot natijasida salatbosh navlarini ochiq maydonda suvli quvurlarda yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlandi. Bunda albatta ushbu usulda yetishtirish xarajatlar yuqori darajada bo'ldi. Chunki tuproqsiz ekin o'stirishda, ya'ni makro va mikro o'g'itlar, yaxshi urug', o'simlikni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish vositalari, yuqori agrotexnologiya nazorati va boshqa ishlar uchun ko'p xarajatlarini talab qiladi. Ushbu tuproqsiz gidroponika usulda salatbosh o'simligini yetishtirish Italiya texnologiyasi asosida 2021 yili 5 milliard 300 mln/so'mga xarajat evaziga 4 gektar issiqxona va 6 gektar ochiq maydonga ushbu texnologiya barpo qilingan. uni qoplash muddati har yilgi olingan daromaddan 50%, 3 yilni tashkil etgan. Tajribalar olib borilgan yillari ekin o'stirishga moslashgan uskuna va materiallar tayyor bo'lganligi uchun ularga xarajatlar talab qilinmadi. Tajribada o'simliklar uchun kerakli bo'lgan ishchi eritma tayyorlashda barcha navlar uchun makro va mikro o'g'itlarga 3120 ming so'm, urug'lik va ko'chatlarni tayyorlash hamda elektr energiya uchun 5210 ming so'm sarflangan. Ochiq maydonga ko'chatlarni ekish xarajatlari 850 ming so'm, o'simliklarni parvarishlashga 5230 ming so'm xarajat qilingan. Ushbu xarajatlar barcha navlarda deyarli bir xilda bo'ldi. Ammo hosilni yig'ish, transport vositasiga ortish va tashish xarajatlari navlararo umumiy hosil miqdori bilan bevosita bog'liq bo'lib, farqlangan, ya'ni Krupnokachan standart navida - 3825 ming so'mni, Aysberg navida - 4219 ming so'mni, Great Lakes 118 navida - 3901 ming so'mni, Rabinson navida - 4190 ming so'mni va Ko'kshox navida 3316 ming so'mni tashkil etgan. Shunda ochiq maydonda mahsulot yetishtirishga ketgan jami xarajatlar Krupnokachan standart navida - 18235 ming so'mni, Aysberg navida - 18629 ming so'mni, Great Lakes 118 navida - 18311 ming so'mni, Rabinson navida - 18600

ming so'mni va Ko'kshox navida 17726 ming so'mni tashkil etdi. Tajribada ustama xarajatlar 25% ni va kutilmagan qo'shimcha xarajatlar miqdori 20% ni tashkil etib, barcha umumiy xarajatlar miqdori nav namunalararo Krupnokachan standart navida - 26441 ming so'mni, Aysberg navida - 27012 ming so'mni, Great Lakes 118 navida - 26551 ming so'mni, Rabinson navida - 26970 ming so'mni va Ko'kshox navida 25703 ming so'mni tashkil qildi. Ochiq maydonda salatboshni tovarbop hosili navlararo gektaridan o'rtacha 34,5 tonnadan 43,9 tonnagachani tashkil etgan. Bir kilogramm salatboshning ulgurji narxi 2024 yil bozor narxlari bo'yicha olindi. Bunda standart Krupnokachan va Ko'kshox navlarining 1 kilogram hosili o'rtacha 27000 so'mdan, qolgan navlar esa 3000 so'mdan sotilgan. Shunda hosil bahosi standart Krupnokachan navida - 107460 ming so'm/ga ni, Aysberg navida - 131700 ming so'm/ga ni, Great Lakes 118 navida - 121800 ming so'm/ga ni, Rabinson - navida - 130800 ming so'm/ga ni va Ko'kshox navida - 93150 ming so'm/ga ni tashkil etdi.

Salatbosh navlarini ochiq maydonlarda suvli quvurlarda yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, ming so'm 2024 y.

Ko'rsatkichlar	Salatbosh navlari				
	Krupnokachan	Aysberg	Great Lakes 118	Rabinson	Ko'kshox
Makro va mikro o'g'itlar xarajatlari	3120	3120	3120	3120	3120
Urug' va ko'chatlarni tayyorlash hamda energiya xarajatlari	5210	5210	5210	5210	5210
Ekish xarajatlari	850	850	850	850	850
Parvarishlash xarajatlari	5230	5230	5230	5230	5230
Hosilni yig'ish, transport vositasiga ortish va tashish xarajatlari	3825	4219	3901	4190	3316
Jami xarajatlar	18235	18629	18311	18600	17726
Ustama xarajatlar, 25%	4558,7	4657,2	4577,7	4650	4431,5
Kutilmagan xarajatlar 20%	3647,0	3725,8	3662,2	3720	3545,2
Barcha xarajatlar	26441	27012	26551	26970	25703
Tovarbop hosil, t/ga	39,8	43,9	40,6	43,6	34,5
1 kg hosil narhi, so'm	2700	3000	3000	3000	2700
Umumiy daromad	107460	131700	121800	130800	93150
Sof foyda	81019	104688	95249	103830	67447
Rentabellik darajasi, %	306	387	359	385	262

Standart nav va boshqa navlarning mahsulot qiymati jami qilingan xarajatlardan yuqori bo'ldi va bu o'z navbatida hosildorlik va uning narxi bilan bog'liq holda sof daromadni ortishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqotdan olingan sof daromad esa standart Krupnokachan navida - 81019 ming so'm/ga ni, Aysberg navida - 104688 ming so'm/ga ni, Great Lakes 118 navida - 95249 ming so'm/ga ni, Rabinson - navida - 103830 ming so'm/ga ni va Ko'kshox navida - 67447 ming so'm/ga ni tashkil etgan.

Ochiq maydonda salatbosh o'simligini yetishtirishda rentabellik darajasi standart Krupnokachan navida - 306 %ni ming so'm/ga ni, Aysberg navida - 387 %ni, Great Lakes 118 navida - 359 %ni, Rabinson navida - 385 %ni va Ko'kshox navida - 262 %ni tashkil etganligi ma'lum bo'ldi.

Salatbosh o'simligini ochiq maydonlarda suvli quvurlarda gidropon usulda yetishtirish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish yuqori iqtisodiy samara berishi aniqlandi. Birgina Aysberg navidan ochiq maydonda olingan sof daromad 104688 ming so'm/ga ni, rentabellik 387 % ni tashkil etdi.



Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoev Sh.M. PF-60-son. “2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022 yil 28 yanvar. <https://lex.uz/docs/5841063> 1-2-b.
2. Mirziyoev Sh.M. PF-5853-son. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019 yil 23 oktabr. <https://lex.uz/docs/4567334> 1-3-b.
3. Mirziyoev Sh.M. PQ-4887-son. “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 10 noyabr. <https://lex.uz/docs/5090241>
4. O‘zbekiston Respublikasi hududida etishtirish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari davlat reestri. –Toshkent: O‘zQXV, 2020. – B. 38.
5. Azimov B.J, Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi. – Toshkent: Mehnat, 2002. – B. 160-164.
6. Belik V.F. Metodika opyitnogo dela v ovoqevodstve i baxchevodstve – Moskva, Agropromizdat, 1992. – S. 319.
7. Avdeenko S.S. Produktivnost i kachestvo salata listovogo v Rostovskoy oblasti // Fundamentalnye issledovaniya. – 2012. – №9. – S. 122-125.
8. Bustanov Z.T. – Salat – cennaya kultura dlya podzimmix posevov v Uzbekistana. // Paxtachilik va donchilik. – Toshkent, 1998. – №3. – B. 66-67.
9. Bustanov Z.T. Turdieva F. – Farg‘ona vodiysi sharoitida salatni qish oldidan ekish va ularni xo‘jalik – biologik baxolash. // Agro Ilm – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – 2018. - №6(56). – B. 43-44.